

ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LI FURQAT IJODIY MEROSI

**Kalmuratova Aselya**

*Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti  
Geodeziya kartografiya kadastr yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'zbek xalqining zabardast shoiri, publist, g'azalnavs shoir, elshunos olim, mutarjimi. Bir qancha asarlari she'rlari va publistika yo'nalishidagi ilmiy asarlari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan shoir. Maqolada Zokirjon Xolmuhammad O'g'li Furqat ijodiy merosi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Shoir, publist, olim, arxeologik jamiyat, gazeta, ijodiyot, tarjima, serqirra, monografiya, demokrat.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ijodiyoti uning tirikligidayoq matbuot sahifalarida, bayozlarda ko'rindi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazetasi»da bir necha marta 1889, 1890, 1891 yilgi sonlarida e'lon qilindi. Uning hayot yo'li ham shu gazetada «Qo'qonlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli» nomi bilan o'zbek-rus tillarida chop etildi. Rus olimlaridan A.Samaylovich 1809 yilda Peterburgda chiqadigan rus arxeologik jamiyatni Sharq bo'limining to'plamida Furqat haqida ma'lumotlar beradi.

O'tgan asrning 30-yillarida Furqat va uning asarlari haqidagi ma'lumotlar maktab darsliklariga kiritiladi. 1939 yilda esa «Guliston» jurnalida shoir asarlaridan namunalari berildi.

Shu yili adabiyotshunos Holid Rasulning «Furqat» nomli maqolasi e'lon qilindi. Shundan so'ng har 10 yillikda furqatshunoslik yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritish bordi. 1954 yilda H.Rasulning «Zokirjon Furqat» nomli monografiyasi, «Furqat – ma'rifatparvar demokrat shoir» nomli kitoblari nashr etildi. Furqat tug'ilganiga yuz yil to'lishi munosabati bilan qator maqolalar yaratildi, chop etildi. Aynan mana shu davrda shoir ijodiyotini o'rganish borasida katta ishlar amalga oshirildi. G.G'ulom, M.Shayxzoda, S.Abdulla, V.Zohidov, I.Sultonov, A.Qayumov, H.Zaripov va boshqalarning maqolalari diqqatga sazovor bo'ldi. Furqatshunoslik maktabini yaratishda professorlar A.Abdug'afurov, Sh.Yusupov, N.Jabborov kabi olimlarimizning xizmatlari alohida e'tiborga molik. Eng muhimi, shoir ijodini o'rganish va tadqiq etish istiqloldan keyin tamomila yangicha bosqichga ko'tarildi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Furqat 1886-87 yillarda yana Marg'ilonga kelgan va Jome' masjididan bir hujra olib, shu yerda istiqomat qilgan. Muhammad Sharif degan bir savdogar do'stining ko'magida do'kon ham ochgan. Bu yerda bir qancha shoirlar bilan do'stlashadi, adabiy aloqa o'rnatadi.

Furqat - lirik shoir. Shoir lirik merosining eng yuqori mavqei asosan g'azallar egallaydi. Mutaxassislarning belgilashicha, g'azallarining umumiy adadi 200 atrofida.

Furqat soʻz sanʼatkori sifatida “Bahor ayyomida”, “Bir qamar siymoni koʻrdim”, “Chiroylik”, “Kokuling”, “Yuzlaringdin sharm etib”, “Adashganman” kabi bir qancha goʻzal, aqlni hayratga soluvchi nurafshon sheʼrlar yaratdi. Shoir lirikasi gʻoya va mazmun jihatidan ham, badiiy jihatdan ham yuqori saviyadagi asarlar boʻlib, unda ichki kechinmalar, fikr va hislar, kishi ruhining eng nozik tuygʻulari ifoda etiladi. Furqatning purmaʼnoli asarlar bitishida mumtoz shoirlarimiz ijodidan yaxshigina bahramand boʻlganligi yordam berdi. Aytmoqchimizki, ulugʻ Navoiy va Fuzuliydardan saboq oldi, ularni oʻziga ustoz deb bildi. Ustozlarning merosiga muhabbat bilan qaragan Furqat bir umr ulardan ozuqalandi va ilhom oldi, gʻoyaviylik va badiiylikni oʻrgandi. Navoiyning juda koʻp gʻazallariga muxammas taxmislar, naziralar bogʻlaydi, oʻtkir fikr va gʻoyalarni ifoda qilishda Navoiyga yaqinlashadi. Tubanda shoir ijodidagi hazrat Navoiyning “Doʻst” radifli gʻazaliga bogʻlagan muxammasning oxirgi bandini oʻqiymiz:

Furqato, ich zahr ayogʻi kelsa, qonma, doʻstdin,  
Talxkom oʻldim dema, hargiz oʻsonma doʻstdin,  
Tonimaslik qilsa ham harchand tonma doʻstdin,  
Ey Navoiy, necha dushman boʻlsa tonma doʻstdin,  
Chunki boʻlmushdir senga yuz ming tamanno birla doʻst.

Furqat Navoiyning doʻstlikni ulugʻlovchi olijanob gʻoyalarini tasdiqlaydi, oʻz fikricha kengaytiradi, aytish mumkinki, bu xalqchil sheʼrlarni yanada ommalashtiradi.

Furqat – ilk oʻzbek jurnalisti. Uning dastlabki jurnalistlik faoliyati “Turkiston viloyati gazetisi”da boshlandi. Ilk maqolasi Toshkentdagi rus gimnaziyasidan olgan taassurotlari asosida yozilgan. Keyinchalik esa Xorijdan – Istanbul, Hindiston, Qashqardan yoʻllagan xabar va maqolalarida bu mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti haqidagi muhim masalalarni koʻtarib chiqadi. Shuningdek, shoirning “Yoqubbek marhumning qoʻliga tushgan Qashqar viloyatining ahvoloti xususida”, “Qashqar viloyatidagi sartiya xalqlarining zindagonlik ahvolutlari xususida”, “Xoʻqandlik Zokirjon Furqatning “Peysai axbor” nom Hindiston gazetidin naql qilib yozgan xabari” kabi maqolalari uning jurnalist sifatidagi yuksak salohiyatini his etish imkonini beradi.

Bulardan tashqari, «Sarguzashtnoma»da aytilishicha, shoir bir necha asarni turkiy tilga tarjima qilgan. «Hammomi xayol» asarini sheʼriy yoʻlda, «Chor darvesh»ni forschadan nasriy shaklda, «Nuh manzar» nomli asarni erkin tarjima qilgan.

Koʻrinadiki, Furqat serqirra ijod sohibi. Uning sheʼriyati, nasri, publitsistikasi va tarjimalari oʻzbek adabiyoti, madaniyatining xazinasidan munosib joy olgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. «Ayyomiy». Saylanma. T, 1984 yil.
2. N.Qobulov, V.Mo`minova, I.Haqqulov «Avaz va uning adabiy muhiti». T, 1987 yil.
3. B.Qosimov «Izlay-izlay topganim...». T, 1983 yil.
4. S.Siyoyev «Avaz». Roman. T, 1987 yil.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)